

O'ZBEKISTON YOZUVCHILAR
UYUSHMASI

ROHILA RO'ZIMANNOPOVA

BARGLAR NIDOSI

She'rlar



TOSHKENT
“ADABIYOT”
2024

Badiiy rahbar:
Sirojiddin SAYYID

Mas'ul muharrir:
Botir ERGASHEV

Nashr uchun mas'ul:
Ma'mura ZOHIDOVA

O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi tomonidan an'anaviy tarzda o'tkazilib kelinayotgan Respublika yosh ijorkorlarining Zomin seminarida 2024-yildan boshlab mamlakatimizning turli hududlarida faoliyat yuritayotgan ijod maktablari o'quvchilari ham ishtirok etishmoqda. Atoqli adiblar nomi bilan atalib, ta'lif jarayonida tilimiz va milliy adabiyotimizni chuqur o'rganishga, badiiy ijodga alohida ahamiyat berilayotgan mazkur o'quv dargohlarida badiiy ijod bilan shug'ullanayotgan ko'plab yoshlar yetishibchiqmoqda.

Ijod maktablarining eng iste'dodli o'quvchilari ijodi kitob holida chop etilib, Siz adabiyot muxlislari hukmiga havola etilmoqda. Ulardan biri **Muhammad Yusuf nomidagi ijod maktabi o'quvchisi Rohila Ro'zimannopovadir**. Muallif hali yosh. Uning yozganlarida ma'lum kamchiliklar bo'lishi tabiiy. Lekin unda o'qish, o'rganish, izlanish, o'zini ijodiy jihatdan yuksaltira borish imkoniyati bor. Bu uning o'ziga bog'liq.

Kitob orqali yosh muallifning ko'ngil bitiklarini o'qib, uning ijod bulog'idan bahramand bo'lishingiz mumkin.

ISBN 978-9910-8882-1-2

© R.Ro'zimannopova, 2024
© "Adabiyot", 2024

URUSH BO'LMASIN

Bir bor kelsak dunyoga,
Inson bevaqt o'lmasin.
Mehr bo'lsin ziyoda,
Aslo urush bo'lmasin

Ota ketar tosh tishlab,
Onalar ko'zin yoshtag,
Go'dak yuragin g'ashlab,
Aslo urush bo'lmasin.

Ravnaq – ilm-u ziyoda,
Yetim kammi dunyoda?
Qonlar oqmay daryoda,
Aslo urush bo'lmasin.

Hammadan qolgan dunyo,
O'z o'chin olgan dunyo.
Kimga kerak muammo?
Aslo urush bo'lmasin.

Ey urush, noming o'chsin,
Bevaqt giyoh so'lmasin.
Xalqlar ahil yashasin,
Aslo urush bo'lmasin.

Tinchlik, erkinlik shami,
Tugab ado bo'lmasin.
Bog' qilaylik Vatanni
Aslo urush bo'lmasin!

MITTI YURAKDAGI ULKAN QARZ

Bir kun suyib onamni men,
Yelkasiga qo'ydim boshim.
“Sizdan qarzim ko'pdir, onam,
Qanday uzay, qalb quyoshim?”

Onam dedi: “Men aslida
O'z burchimni etdim ado.
Bolajonim, shu Vatanga
Bor-u yo'g'ing ayla fido”.

Balki yoshman tinmay yana,
Savol berdim, qildim so'roq.
Onam dedi: “Shu Vatanning
Ulg'aytirdi seni ko'proq”

Nigohimdan sezdi darrov
Endi savol kutmay mendan.
“Shu tuprog'ing rozi bo'lsa,
Rozidirman, bolam, sendan”.

Dedi: “Jajji jonsaragim,
Sen Vatanning ertasian.
Shu millatning dardini ol,
Yukini ol yelkasidan.

Hech bo'lmasa, shu tuproqqa
Bir nihol ek, gullar qada,
Otasiga, onasiga
Rahmat desinlar ming karra".

O'ylab qoldim, qanday qilib
O'z qarzimni uzarman deb.
Onajonim takror aytar:
"Vatanni sev, xalqingni sev!"

Sevgan inson hech birovga
Yomonlikni etmas ravo.
O'zbekiston, sening uchun
Kerak bo'lsa, jonim fido!

Onajonim, millat uchun
Xizmat qilib men, albatta.
Xalqdan olib sizga bergum,
Rahmat degan chin guldasta!

BOLALIK

Bolalik, kapalak misoli
Bir kunlik umrday o'tyapsan.
Bo'yimga bo'y qo'shib asta bir,
Sen meni jim tark etyapsan.

Bolalik suv kabi shoshilib,
Tinmaysan, to'xtab ham qo'ymaysan,
Men seni yasharman sog'inib,
Sen meni qachon bir qo'msaysan?

Bolalik misli bir qaldirg'och,
Umrimning bahoriy mehmoni.
Kuz kelib tark etar noiloj,
Qishmikan umrning mezboni.

Bolalik beg'ubor, keng osmon,
Bog'ida erkalab to'ymaysan.
Sog'inib yasharman men har on,
Sen meni qachon bir qo'msaysan?

Bolalik,
Bolalik,
Bolalik...

TO'MARIS

Jang oldidan

Ey xalqim, shu yurtga keldi quzg'unlar,
Bo'laylik bir jon-u, bo'laylik bir tan.
Bizga halovat yo'q, hattoki tunlar,
Oliy maqsad erur bizga shu Vatan.

O'g'lim botir edi, jang qilmay dushman,
Ustun keldi undan, qo'lladi nayrang.
Qo'lga qilich olib buyuk ishq ila,
Vatanimiz uchun qilgan edi jang.

Ey Xudo, senga bir yetib nolamiz,
Qonxo'r dushmanlarning jonini olay.
Beshikda tinch yotsin har bir bolamiz,
G'animning boshini qon meshga solay.

Bir qarich yerimni bermay g'animga,
Vatan shu jonimdan azizdir asli.
Yovlarga qul bo'lib yashashdan ko'ra,
Vatan uchun o'lsin To'maris nasli.

Olg'a, xalqim, bugun tongda saf tortib,
So'nggi nafasgacha Vatan deb yoning.
O'ldirsa o'ldirsin, bizni yurt ishqisi,
Vatan deb jo'sh ursin tomirda qoning!

AQL KUCHI

*Xudoyberdi To'xtaboyevning
“Sariq devni minib” asarini o'qib...*

Bir kitobni qo'lga olib,
O'qib chiqdim “Sariq devni”.
Asardagi qahramonlar,
O'yantirib qo'ydi meni.

Bosh qahramon bolakayning,
Orzulari ulkan osmon.
Bilim kerak maqsadlarga
Anglab yetmas hech Hoshimjon.

Orzularga yetay deydi,
Hamrohidir sirli qalpoq.
Deydi:
– Ko'rsin ustozlarim,
Faxrlansin butun qishloq“.

Agronomlik qildi avval,
Epolmadi, haydaldi u.
Shoirlikni havas qilib,
Bo'ldi rosa xalqqa kulgu.

Uddalolmas bilim yo'q-da,
Muallimlik kasbini ham.
Har sehrdan qudratlidir,
Inson aqli bo'lganda jam.

Qalpoq dedi:
– Ey Hoshimjon,
Men aqlni berolmayman.
O'zing o'qib, o'rgangin-da,
Men bu ishni eplolmayman.

Shunda men ham anglab yetdim,
Faqtat o'qish, uqish kerak.
Bilimi zo'r har bir inson,
Maqsadlarga yetar beshak.

Yolg'on bilan, sehr bilan,
Orzularga yetib bo'lmas.
Hozir o'qib-o'rganaylik,
O'tgan umr qaytarilmas.

“ROBINZON KRUZO” KITOBINI O‘QIB...

O‘ylab qoldim...
Katta Orol,
Agar qolsak yakka-yolg‘iz.
Balkim kunlar o‘tar nochor,
Bo‘lsak agar hech chorasiz.

Chorasizlik insonlarni,
Balki buyuk ishga chorlar.
Yangi hayot boshlamoqqa,
Balki sizda umid porlar.

Robinzon ham hayotini,
Ko‘p qismida yashar yolg‘iz.
To‘rt tomoni cheksiz ummon,
Bu oroldir, bir kimsasiz.

Shunday joyda umid bilan,
Mehnat qilib yashab keldi.
Hech kimsadan yordam kutmay,
Faqt aqli hamroh bo‘ldi.

Faqatgina istak, maqsad,
Olib borar orzu sari.
Sabr ila mehnat qiling,
Shunday Robinzon singari.

Robinzondek yolg'izmassiz,
Atrofingiz to'la odam.
Biror ishni boshlamoq-chun,
Ko'pdir asli sizga yordam.

Ey zamondosh, vatandoshim,
Siz ham biroz fikr qiling.
Tinch shu yurtda yashamoqlik,
Asli baxtdir, shukur qiling!

HAMID OLIMJONNI ESLAB

Zulfiya tilidan monolog

1996 – yil...

Bahorning eng so'nggi kuni...

Bugun...

Bahorimning eng so'nggi kuni...

U ham tark etmoqda meni seningdek.

Seni uchratganim – tole kulgani,

Baxtli ayol yo'qdir asli meningdek.

Sening nafasing-u sevging his qilib,

Qalam olsam bo'lding, sen so'z shukuhim.

Yuragim – sen o'zing, dardim, quvonchim,

Go'yo qo'llaringdan tutganday ruhim.

Aytganday...

Sen ekkan o'rik daraxti,

Shu bahor negadir erta gulladi.

Lek, afsus...

Bir kun qor o'z zahrin sochib,

Bevaqt gulin to'kkon daraxt yig'ladi.

Menga yupanch bo'lgan o'rik gullari,

Zamin yuzin yopdi shamol tufayli.

Dedim:

Kuyinma hech, ey sirdosh do'stim,
Dardimiz bir bo'ldi.
Taqdir-da...
Mayli...

O'rik gullarini poygakda ko'rib,
Sen tomon yoyilgan poyandoz, dedim.
O'sha kun tushimda mehmonim bo'lib,
O'sha kun...
Kun bo'yи baxtiyor edim.

Sen aytдин:

"Yig'lama, kuyinma, erkam...
Mening uchun ham yoz,
Qalam tut," – deding.
Men olov singari yonib o'tsam ham,
Sen shu alanganing uchquni eding.

Bilmam...

Balkim

Menga shunday tuyular,
Suvlar shildirab der: dil izhoringni.
Qani endi, saqlab qola olsaydim,
Yil bo'yи sen kutgan gul – bahoringni.

Eh, azizim,
Bu yil...
Ko'klam ham senday
Shoshib keldi,
Menga sozini berdi.
Seni yod etuvchi maftunkor bahor
Nasib etarmikan,
Azizim, endi...

Sening yoding bilan yashadim doim,
Sadoqat kuyini kuylab o'tdim men.
Kutib ol, yoningga bormoqlik uchun
“Vafo” yanglig‘ so'nggi so'zni bitdim men.

BOBUR NIDOSI

Yuragimda hijron olur zo'r alanga,
Oh Andijon, firog'ingda qalb qiyalar.
Xokim mening borurmikan o'z Vatanga?
Sog'inchim ayt ona yurtga, ey turnalar.

Axsikentning dalasida ungan urug'
Chirsillashi eshitilar qulog'imga.
O'z yurtimdan kelgan barcha ne'mat ulug'
Qovunining ta'mi turar dimog'imda.

Ikki ko'zim suvdir va lek ko'nglimda o't,
Hind yurtida shohman, biroq ko'nglim g'arib.
Urush degan chohdin o'tdim o'ynatib ot,
Lek Vatanga qaytolmadim yurt axtarib.

Boburingman, o'zga yurtda shox o'g'loning,
Sog'inch mening ko'z yoshlaram qildi alvon.
Ko'zga surtib o'lsam edi zar tuprog'ing,
"Anda jonim" qolib ketgan, jon Andijon!

INSON QADRI AZIZ

Ona xalqim, qancha-qancha davron surding,
Ey o'zbegim, yana qancha tazyiq ko'rding.
Yiqilmading, egilmading, qayta turding,
Shukur, bugun el azizdir, ajib zamon,
Inson qadri aziz bo'lgan O'zbekiston!

Umrin o'tdi "Paxta ishi" dalasida
Ozodlik deb momolarim yallasida.
Bu – o'tmishning og'riqli, kir yarasi-da,
Keldi bugun xalqim uchun yangi davron,
Inson qadri aziz bo'lgan O'zbekiston!

Tinch zamonda yashayapman sezmay qo'rquv,
Ma'rifat-u bilimlarning zamoni bu.
Jadidlarim bu davronni qilgan orzu,
Bugun izzat, hurmat topdi har kitobxon,
Inson qadri aziz bo'lgan O'zbekiston!

Har rahbaring mas'uliyat tuyadilar,
Darding bormi, ostonangga keladilar.
Duoda ham elga baxtni tiladilar,
Ibodatni xalqi uchun qilgan sarbon,
Inson qadri aziz bo'lgan O'zbekiston!

Turli millat yashamoqda bo'lib birdam,
Shahar kabi bo'lib ketdi qishloqlar ham.
Xalqni rozi qilmoq uchun bo'laylik jam,
Har sohada berdi elga minglab imkon,
Inson qadri aziz bo'lgan O'zbekiston!

ONA TILIM

Mustabidning zanjiriga boylangan sen,
Qancha yomg'ir, do'lda qolib loylangan sen,
Bulbullarning xonishiga aylangan sen,
Navoiydan qolgan buyuk meros tilim.
Bugun jahon ayvonida e'zoz tilim.

Dedilarki : “Savodsizsan, o'z tiling yo'q”
Sendan oldin yaralgan-ku “Devoni turk”.
“Oh” demadi yuragiga qadalsa o'q,
Qadim turkiy bobolardan meros tilim.
Bugun jahon ayvonida e'zoz tilim!

Til – bu asli ma'naviyat non-u tuzi,
Til – bu asli bir millatning yorug' yuzi,
O'z tilingdan ayro bo'lsang, unut o'zni.
Avloniy va Behbudiydan meros tilim,
Bugun jahon ayvonida e'zoz tilim!

“Kecha-kunduz” ko'rdi qancha qaro tunlar,
Jozibasin ko'rsatganda “O'tkan kunlar”,
Tomiringni cho'qib ko'rdi ko'r quzg'unlar,
Cho'lpon, Fitrat, Qodiriydan meros tilim,
Bugun jahon ayvonida e'zoz tilim!

Bosib o'tding yorug'-qaro zamonlarni,
Yuragingdan yulib tashla tikonlarni,
Vaqti keldi endi gulgun davronlarni.
Men o'zbekman, buyuk xalqdan meros tilim,
Bugun jahon ayvonida e'zoz tilim!

MILLAT USTOZI

Adabiyotning turkiy ulus qasriga,
Qurib ketgan eng mustahkam poydevor.
O‘zni anglab yetmoq uchun aslida,
Navoiyni o‘qib o‘rganining bir bor.

Avliyolar avliyosi – Navoiy,
Shoir desak, shoirlarning sultonı.
Har bir satri ipga terilgan durday,
Maqsadlarga chorlar so‘zlar ummoni.

Xalqni sevgan, bo‘lgan “Millat quyoshi”,
Zulmat ichra porlab turgan buyuk nur.
Qalbingizga yetib borsa ziyosi,
Shunda sizni boshqaradi tafakkur.

Ma’naviyat piri deydi: “Olamning
Asli Odam – toji, buyuk gavhari”.
Anglagaymiz hayot ilmini doim,
Intilamiz qalban buyuklik sari.

“Odamlarning naqshi” bo‘lgan Navoiy,
Tuganmas bir xazinadir merosi.
Yakqalamadir jahon uzra abadiy,
Navoiydir – millatimiz ustozи.

QIZG'ALDOQ

*Muhammad Yusufning "Qizg'aldog'im"
she'riga nazira*

Ona yerning barcha dard-u g'amin olib,
Alvon rangda zavq ularshding bosh ko'tarib.
Rashkim kelar sen quyoshga boqsang kulib,
Dardlaringni tinglay desam, dilxonang yo'q.

Shabnam o'pgan yuzlaringga to'yib olay,
Aytgin menga, dardlaringni kuyga solay.
Yaproq'ingga dastxatimni qo'yib olay,
Ko'z yosh toksang, darding tinglar hamxonang yo'q.

Xiyonatdan qizil yuzing qaro bo'lar,
Hijroningda yurak-bag'rim yaro bo'lar.
Dardlarimni sendan bo'lak kim ham bilar,
Asli mendek ishq izlagan sarsonang yo'q.

Visolingga to'yolmasdan ketsa bahor,
Oshiqlaring diydoringga zor-intizor.
Andijonda Muhammaddek oshig'ing bor,
Bir shoirdan o'zga do'st-u devonang yo'q.

QOMUSIM

Xalqim uchun muqaddas kitob,
Inson qadrin aylagay xitob.
Erkinlikka boshlovchi oftob.
Sensan mening or-u nomusim,
Barhayot bo'l, buyuk Qomusim.

Odamiylik unda mujassam,
Erkin yashar barcha millat ham,
Adolatga tayanib har dam.
Kelajakka yo'lchi yulduzim,
Barhayot bo'l, buyuk Qomusim.

Qonunimiz ustundir bugun,
Xalq manfaati har nedan ustun.
Islohotlar xalq, inson uchun,
Jahon ichra baralla so'zim,
Barhayot bo'l, buyuk Qomusim.

Millatimni millat qilguvchi,
Fuqarolik davlat qurguvchi,
Yoshlarini qo'llab, suyguvchi
Ulug' xalq bor quvonar ko'zim,
Barhayot bo'l, buyuk Qomusim.

Qonun borki, tinchlik hukmron,
Qonun borki, muqaddas inson.
Huquq, burchni bilaylik har on,
Qonun bilan anglayman o'zim
Barhayot bo'l, buyuk Qomusim!

BAHOR KELDI

Mayin sabo ko'ksimni yelpib,
Shudring maysa yuzini o'pib,
Bulut asta ko'z yoshin to'kib,
Bahor keldi yurtimga yana!

Boychechak ham qilib tabassum,
Qushlar madhing qilar tarannum,
Zamin taftin his qilib har zum,
Bahor keldi yurtimga yana!

Kamalakrang ko'y lakda bashar,
Qaldirg'ochlar ko'kda raqs tushar,
Qalamimning yuragi toshar,
Bahor keldi yurtimga yana.

Bu ko'klamdir bir ajib sir bor,
Kelinchakday sep yoydi bir bor,
Yomg'ir asta aytganda alyor,
Bahor keldi yurtimga yana.

Ariqlarda suvni toshirib,
O'z bag'rida kurtak yashirib,
Dehqon ahli shashtin oshirib,
Bahor keldi yurtimga yana!

Qish ham qarab qolar havasda,
Bodom ilk bor tutib guldastra
Ko'chalar gul, yo'llar orasta,
Bahor keldi yurtimga yana!

ONA

O'tkir Hoshimovning "Dunyoning ishlari" asaridagi "Iltijo" monologini o'qib...

Ona – shunday buyuk ekanki,
O'ylamaydi hech o'z g'amini.
Mehrin berib, muhabbat bilan,
To'ldiradi dunyo kamini.

Eng birinchi ustozim – onam,
Yo'qotibman ishonch tog'imni.
Oltmisht minglab kitobim chiqdi.
Eshitarmi Onam ohimni?

Tag'in yana ko'klam kelibdi,
Qabringizni qoplar boychechak.
Ko'zingizga surtgan giyohlar,
Bugun sizni yod oldi, demak.

Siz oftobni, yomg'irni sevib,
Menga ko'plab aytgansiz cho'pchak.
Allangizga mast bo'lgan tunlar,
Mening uchun bir shirin ertak.

Men-ku alla aytishni bilmay,
Silab qo'yay qabringiz shu dam.
Yig'lamayman, bezovta bo'l mang,
Ey dardkashim, onajonginam.

Hazillashib dedingiz menga,
“Meni ham bir kitob qil, bolam”.
“Nimangizni kitob qilay”, – deb,
Hazillashdim, kechiring, onam.

Mana kitob, Sizga atalgan.
Kechiktirdim, kechiring, biroz.
Siz yozdingiz ushbu kitobni,
Men ko'chirib tarqatdim, xolos.

Bir o'tinchim, ushbu kitobni,
Hamma Ona o'qib chiqsaydi.
Dunyodagi barcha Onalar,
Onajonim, sizday bo'lsaydi!

BARGLAR NIDOSI

Kuz keldi.

Xazonrezgilik boshlanar,

Barglar tark etarlar o'z daraxtini.

Baxti kulganlari daraxt poyida,

Qolgani shamoldan topgay baxtini.

Barglar shivirlaydi shamol-bo'ronga,

Onam quchog'idan ayirma meni.

O'zga yurt ko'shkida uchib yurgandan,

Vatanim poyiga to'kilay, mayli.

Barglarning nidosi qalbim titratdi,

Mana, fidoyilik...

Mana, muhabbat...

Shunday fidoyilar tug'ilsa yurtda,

Bunday yurt doimo yuksalar, albat.

Vatanni sevsangiz, hech bo'lmaganda,

Seving xazondagi shu barg misoli.

Vatanni sevsangiz, shunchalik seving,

Yurakka jo bo'lsin Vatan timsoli.

ONAMGA

Jannat – onalar oyog'i ostidadir.
Hadisdan

“Jannat asli ne?” – deb so'rasa,
Eng go'zal joy...
Xayol qilibman.
Bu go'zallik onam qalbidan,
Yaralganin endi bilibman.

“Jannat hidi qaysi gullardan
Taralgan deb?” – tutardim so'roq.
Ona suti ta'midan o'zga,
Totlisi yo'q dunyodam biroq.

Sen yozgan she'r go'zal deb meni,
Ko'klargacha ko'tardi, lekin
Onam aytgan allalaridan,
Men ilhomni olganim tayin.

Mehri toshni erita olgan,
Mehribonim, qalbi quyoshim.
Jannat asli onam poyida,
Men poyiga egaman boshim.

BAHOR

Qora tunlar ortidan doim,
Yorug' kunlar kelishi tayin.
Bahor eshik qoqib kelyapti,
Shabbodasi yelmoqda mayin.

Sovuq kunni ortda qoldirib,
Tarovatin yoyadi bahor.
Alvon rangli lolalar bugun,
Adirlarni qoplaydi takror.

Bodom, o'rik daraxt gullashi,
Sening go'zal sehringmi, bahor?
Qaldirg'ochning tongda xonishi,
Sening bizga mehringmi, bahor?

Yomg'ir yog'ib, so'ng oftob chiqib,
Qutlar sizni ko'kda kamalak.
Yaxshi niyat orzular bilan,
Momolarim qilar sumalak.

Har bir qalbga kirib borganda,
Eriydi qor, yuvilar g'ubor.
Toshdan qattiq yuraklarga ham,
Yangi hayot bag'ishlar bahor.

FAXR

Tarixga bir nazar sol,
Ajdodlaring bo'lgan kim?
Biri olim, biri shoh,
Biri buyuk munajjim.

Sino tibbiyot ilmin,
Rivojlantirib ketgan.
Biri sahih hadislar,
To'plab qog'ozga bitgan.

Temur bobomning dong'i,
Dunyoga ketgani rost.
Al-Xorazmiy bilimi,
Algebragadir asos.

Navoiy bitgan baytni,
Hech shoir bitolmagan.
Pahlavon Mahmudingni,
Hech kim yiqitolmagan.

Ajdodim bo'lgan yana,
Qancha buyuk insonlar.
Ularning ilmi bilan,
Rivojlangan zamonlar.

Ajdodlarga munosib,
Bo'lmoq – bizning burchimiz.
Ey O'zbegin yoshlari,
Birlashsak, katta kuchmiz.

BUYUKLAR YURTI

Oh, Samarqand, sening bag'ringda,
Ulug' zotlar aylagan makon.
Go'yo Temur bobomning ruhi
Qo'riqlaydi seni har zamon.

Imoratlar asli bobomning,
Har g'alaba nishonasidir.
Shu boisdan azim Samarqand
Buyuk Sharqning durdonasidir.

Zamonlarning suroni senga,
Berolmagay hech qachon zavol.
Sen onasan Temuriylarga,
Quchog'ingda topgandir kamol.

Sen olim-u fazillar shahri,
Tugab bitmas ilm-u urfoning.
Qo'llab turar seni hamisha,
Ikki buyuk Sohibqironing.

VATAN

Men dunyoga kelganim chog'i,
Alp chinorning bo'lib yaprog'i,
Ilk Vatanim – onam quchog'i,
Otam, qarog'imdirsan, Vatan!

Vatan uchun qush ham to'plar xas,
Vatansizning quvonchi bo'lmas.
Ona kabi buyuk muqaddas,
Qalbim, ardog'imdirsan, Vatan!

Ta'rifingning yo'qdir adog'i,
Senda qaynar mehr bulog'i.
Tabarrukdir Vatan tuprog'i,
Bobur firog'idirisan, Vatan!

Kindik qonim to'kilgan maskan,
Ota-onam shu yerda o'sgan.
Ota yurtim – go'zal Izboskan,
Ona qishlog'imdirsan, Vatan.

O'zbekiston, ey ona yurtim,
Tuprog'ingni ko'zimga surtdim.
Bugun senga o'z baytim bitdim,
Ilhom bulog'imdirsan, Vatan.

O'ZBEK FARZANDLARI

Asli xonlar, sultonlar yurti,
Bo'lib kelgan bu ko'hna Turon.
O'z uyida bek bo'lgan payti,
Senga ta'zim qilardi jahon.

Bu Temurlar, Boburlar yurti,
Mardlik qaynar edi qonida.
Bugun yurtga Shiroqlar qaytdi,
Vatan ishqি jism-u jonida.

Qaram qilmoq bo'ldi qanchasi,
Lek qaddini bukmadi o'zbek.
Bo'lsa qaysi millat bolasi,
O'z bag'riga ololdi birdek.

Jaholatga ma'rifat bilan,
Kurashmoqni dastur qilganlar.
Behbudiy va Cho'lpon o'tgan kun,
Ozodlikning qadrin bilganlar.

Istiqlolning shamoli yelib,
Bugun quyosh jilmayib botar.
Bugun beklar dunyoga kelib,
Alpomishlar beshikda yotar.

MAQSAD

Yangi yilda yangi maqsad-la,
Ko'klargacha parvoz etamiz.
Biz xalqimning ishonchi birla,
O'zbekiston madhin bitamiz.

Bugun Yangi O'zbekistonning,
Tayanchi va ishonchi yoshlar.
Yangi fikr, yangicha g'oya,
Ulug' maqsad sari yo'l boshlar.

Har orzuning ro'yobi uchun,
Bugun ochiq imkon yo'llari,
Bizga madad bo'lib turguvchi,
Yurtboshimning ishonch so'zlari.

Ajdodlarga munosib bo'lib,
Ular ruhin etajakmiz shod.
Birlashib biz o'zbek yoshlari,
Zo'r kelajak etaylik bunyod.

KORRUPSIYA

Nafsi xandon otganlar,
Pul dardida chopganlar,
Vijdonini sotganlar,
Pora olayotgan zamon,
To'xtang, o'ylang, ey inson.

Farzandin rizqin qiyib,
Pul berar yurak kuyib,
Oling nafsingiz tiyib,
Yo'ldan ozdirmay shayton,
To'xtang, o'ylang, ey inson.

Qing'ir yo'lida qilar "dod,"
Kim o'ljadir, kim sayyod,
Qachon to'yar odamzod?
Tuproq ko'zga tushmay on,
To'xtang, o'ylang ey inson.

Inson ko'zi to'q bo'lsin,
Korrupsiya yo'q bo'lsin,
Odamzod nafsi o'lsin,
Nafsingiz qiling qurban,
To'xtang, o'ylang, ey inson.

TAFAKKUR YO‘LI

Inson ongi samoday cheksiz,
Maqsad borki, iroda so‘lmas.
Kuch-u qudrat bilimda, shaksiz,
Tafakkurda tanaffus bo‘lmas.

Sen kimlarning avlodisan, bil,
O‘zing uchun qo‘y ulug‘ maqsad.
Bilim sari chorlaydi bu yo‘l,
Senga aqling bo‘ladi madad.

Shijoatli yoshlar maydonga,
Chiqib kelsa umidlar so‘lmas.
Sho‘ng‘ing bilim degan ummonga,
Tafakkurda tanaffus bo‘lmas.

INSONIYAT DARDI

2020-yil...

Barcha hayron, barcha lol.
Xitoydan chiqqan virus,
Dunyo egallar darhol.

Barcha teng izlanishda,
Chorasi yo'qday go'yo.
Insoniyat boshiga
Kelgan imtihonmi yo?

Sarhad bilmagan virus,
Sochib tojli zahrini.
O'z domiga tortadi,
Birday yosh-u qarini.

Barcha davlat, barcha xalq,
Sarflar birdayin kuchin.
Qo'l yuvib, niqob taqing,
Virus yuqmasligi-chun.

Dunyo shifokorlari
Birlashdi bir jam bo'ldi.
Necha kasallar bugun,
Tuzaldi, birdam bo'ldi.

Uyda qolib g'oliblik,
Butun dunyo ahdidir.
Tushundik, anglab yetdik,
Sog'lik – inson baxtidir.

BOKSCHILARIMIZGA

“Olg‘a” deyman ringga chiqqan,
Ey o‘zbegin polvonlari.
Oriyat-la kuchin yiqqan,
Siz – o‘zbegin arslonlari.

Siz – Temurning naslidirsiz,
Siz – O‘zbeksiz ori bor.
Siz – Boburning aslidirsiz,
Mahmud Polvon qoni bor.

Bugun ringlar aro yangrar,
Olg‘a o‘zbek, O‘zbekiston!
Gar raqibi o‘zbek bo‘lsa,
Titrab tursin butun jahon.

Nokautmi? Nokdaunmi?
Ringda g‘olib bo‘lsangiz, bas.
O‘zbekiston o‘g‘loniga,
Dunyo qilar bugun havas.

ANDIJON POLKASI

Andijondan taraladi bir sado
Qalblarni yayratar, dilni o'ynatar.
Andijon polkasi yangrasa agar,
Qo'llar ko'ksingizda sizni o'ynatar.

Bunday sho'x navoni topolmagaysiz,
Andijon polkasi – Andijon faxri.
Boshida hamisha do'ppisi bilan
Sizni kutib olar Andijon ahli.

TILAK

Ey O'zbegim, O'zbekistonim,
Hech qanday yurt tenging bo'lolmas!
Fido bo'lsin senga bu jonim,
Ona xalqim, omon bo'lsang bas.

Tabiatning injiq shashtidan,
Ba'zan inson sog' chiqqa olmas.
Suv toshqini, sel toshqinidan,
Ona xalqim, omon bo'lsang bas.

Urush yillari tahlika zamon,
Bu sinovlar qadding bukolmas.
Sen baridan chiqqansan omon,
Ona xalqim, omon bo'lsang bas.

Ba'zan bo'lar guruch olasi,
Bunday nokas qadring bukolmas.
Bir shoira qizing nolasi –
Ona xalqim, omon bo'lsang bas!

QALAM QUDRATI

Qalbimning tug‘yonini
Oqqa ko‘chirdi qalam.
Qudratin ko‘ring uni,
Qilar so‘zlarimni jam.

Bu qalamni do‘sst tutib,
Qancha adiblar o‘tdi.
Bu qalam shoirlarning,
Otashin baytin bitdi.

Qancha-qancha davlatlar,
Bosh tortdi nizolardan.
Qalam tutib rahbarlar,
Sulh tuzar imzolardan.

Qo‘li yo‘q, oyog‘i yo‘q,
Ko‘zi ham yo‘q ko‘r bo‘lsa.
O‘ylantirdi meni ko‘p,
Qalam shunday zo‘r bo‘lsa?

Qo‘llardan tushmay bugun,
Doim e’zozda qalam.
Shunday beminnat bo‘lsa
Insoniyat ahli ham.

DEHQON BUVIJONIMGA

Dala kezar buvijonim,
Quyoshdan ham erta turib.
Kuni bilan hech charchamas,
Barcha g'o'za qator yurib.

Ketmonini qo'ymaydi hech,
"Ketmon mening sirdoshim" – deb.
Quyosh botsa ham tinmaydi,
G'o'zalarga beradi zeb.

Balki, fermer ayol bugun,
Xalq dardini o'ylar asli.
Oltmisht beshga kirsa hamki,
Tinim bilmas to'rtta fasli.

"Agar uyda bug'doy bo'lsa,
Bitta g'amming ariydi", – der.
"Bekorchilik, tanballikdan
Asli inson qariydi", – der.

"Bir paytlar bir burda non,
Boqqan" – deydi, – o'n to'rt jonni.
Xirmoni mo'l bo'lsa agar,
Yuzi yorug' har dehqonning.

Yuribdi o'z rizqin terib,
Bu dalada qancha inson.
Shu qishloq dosh ahli uchun,
Ko'taradi katta xirmon.

Yelkadagi ketmon asli,
Mas'uliyatli yuk ekan.
Dalalarda yurgan ayol -
Qalbi osmon, buyuk ekan.

ONA

Yo'llarimga mushtoqsiz har dam,
Siz o'zingiz dardimga malham.
G'amlaringiz olayin men ham,
Sizni yaxshi ko'raman, ona.

Yashaymanki, yuraksiz menga,
Suyanganim – tirkaksiz menga.
Har soniya keraksiz menga,
Sizni yaxshi ko'raman, ona.

Sochingizga yog'sa-da qorlar,
Baxtim ko'rib ko'zingiz porlar.
Meni doim mehringiz chorlar,
Sizni yaxshi ko'raman, ona.

Mehnatlarda qo'li qadog'im,
Poylarida jannatiy bog'im.
Qalbimdag'i buyuk ardog'im,
Sizni yaxshi ko'raman, ona.

Mehri cheksiz – u buyuk xilqat,
Farzand uchun ilohiy ne'mat.
Borligingiz o'zi bir hikmat,
Sizni yaxshi ko'raman, ona.

DUO KUCHI

Har bir ishda baraka topib,
Harakating ketmas besamar.
Senga baxtlar keladi chopib,
Ota-onang duo qilsa, gar.

Bu duodir – asli bebahoh,
Qiymatini o'lchay olmas zar.
Sen omadni izlama aslo,
Ota-onang duo qilsa gar.

Yetkazolmas hech kimsa ziyon,
Boshga doim baxt qushi qo'nar.
Sen olovdan chiqasan omon,
Ota-onang duo qilsa gar.

Bilgin, inson, qay yo'ldan yursang,
Farzanding ham shu yo'ldan yurar.
Omaiding ham ketmaydi qo'ldan,
Ota-onang duo qilsa gar.

BIRINCHI USTOZIMGA

Qo'limizdan tutib harf o'rgatgan,
Ilk bora maktabga kelgan chog'imiz.
Birinchi ustozim sizga atalgan,
Cheksiz mehrimiz-u, ko'ngil bog'imiz.

Otamizday g'amxo'r bo'lib doimo,
Onamizday bo'loldingiz mehribon.
Ezgulikka, yaxshilikka chorlovchi,
O'gingizing qulog'imizda har on.

Vatan, ona degan so'zlar ma'nosin,
Yozib qo'ydik, ustoz, yuragimizga.
Quvonsak quvonib, yig'lasak yig'lab,
Aylandingiz ustoz tirlagimizga.

Sochingizga oralagan oqlar ham,
Biz sabab ko'paydi kechiring, ustoz.
Hayot mazmunini tushuntirdingiz,
Biz sizni hamisha qilamiz e'zoz.

BIZ TUFAYLI

Bugun ko'proq...
O'zingizga berasiz zeb,
Yashang asli:
Vatan uchun ne qildim, deb.
Vatan uchun katta bir bog'
Qilmang, mayli,
Bitta daraxt unib-o'ssin
Siz tufayli...

Bu daraxt ham meva qilar
Asta-sekin.
Soyasiga o'tirsa ham
Duo tayin.
Dunyo kezma, dunyolarga
Chiqmang, mayli.
Bitta inson xursand bo'lsin
Siz tufayli.

AJIB DUNYO

Bu qiziq dunyodir
Xo‘p ajib dunyo.
Hech qachon to‘l magan,
Bordir bir kami.
Dunyoda har narsa
Tugaydi go‘yo,
Abadiy qoladi
Dunyoning g‘ami.

Insonlar qiziqdir,
Ular bir dunyo.
Uy qurdi ichida,
Erur boshqalar.
Bugun biz kosadan,
Osh ichib go‘yo
Birining qabriga,
Biri tosh qalar.

MAJNUNTOЛ

Irmoqlarga sirdoshday bo‘lib,
Kokillarin turadi yoyib,
Majnuntollar shoxlarin egib,
Turar, balkim, bizdan uyolib.

Kelinchakday go‘zal majnuntol,
Balki kiprik – yaproqlaridir.
Go‘yo soyning labida doim,
Suvga aytar sirlari bordir.

Kokil bilan bor go‘zalliging,
Yashirasан topmay deb zavol.
Dardlaringni olarman, balki
Siringni ayt menga, majnuntol.

SIRDARYODAGI SUV TOSHQINIDA

Sirdaryoda tong otar edi,
Suv ombori oshib haddidan.
Sig'may qolib o'z o'zaniga,
Chiqib ketdi o'z sarhadidan.

Suv ombori buzilib ketib,
Sirdaryoni suv bosdi shu on.
Oqib o'tib Qozog'istonga,
Suv ichida qo'shni Turkiston.

Bog'cha, maktab, uy va ko'chalar,
Suv ichida qoldi barchasi.
Qalqib yotar suvning ichida,
Ona yerning bitta parchasi.

Shunday naqli bordir xalqimning –
Suv balosi – bu tilsiz yovdir.
Tushkunlikka tushmagin, xalqim,
Bu ham bizga bitta sinovdir.

Yurtboshim ham aytdi xalqimga:
“E'tiborsiz qolmagay hech kim.
Qayta yangi shahar quramiz,
Yoningizda bo'laman, xalqim!”

Mol-u dunyo topilar, ammo
Omonatni saqlamoq kerak.
Vatan qo‘lin cho‘zyapti xalqim,
Bu ishonchni oqlamoq kerak.

Har qandayin ofatni o‘zbek,
Yengib chiqqan, tarixdir guvoh.
O‘t balosi, suv balosidan,
Barchamizni asrasin Ollo!

ONAJONIMGA

Quvonch to'la ko'zingiz bilan,
Mehr to'la so'zingiz bilan,
Onajonim, o'zingiz bilan,
Faxrlanib, suyib quchaman,
Bag'ringizdan ko'kka uchaman.

Quyosh tafti quchog'ingizda,
Bir gulman men gul bog'ingizda,
Ulg'ayaman ardog'ingizda,
Chiroyligim, jonajonginam,
Mehribonim, onajonginam.

Allangizdan olib ilk ta'lif,
Siz o'zingiz menga muallim.
Sizga doim qilaman ta'zim,
O'zingizdan olaman ibrat,
Onajonim, bo'ling salomat!

* * *

*Muhammad Yusuf nomidagi
ijod maktabining 5 yilligiga bag'ishlanadi*

Ey ijod maktabim, nazm gulshani,
Adabiyot, san'at-u ijod oshyonи.
Ta'lrim olib senda eng yangi avlod,
Lol qoldirar bugun butun dunyoni.

Go'yo duo olib turar maktabim,
Nazm-u nasr bog'i darg'alaridan.
Niholmiz, qonib suv ichaylik bugun,
Buyuk adabiyot jilg'alaridan.

Adabiyot, san'atni sevgan millatlar
Ma'naviyat quyoshi bilan porlagay.
Ijod maktabimiz barcha-barchani,
Ezgulik bayrog'i ila chorlagay.

Zarur bilimlarni egallab bugun,
Ertaga shu xalqqa nafimiz tegsin.
Ijod maktabining muallimlari,
Yana qancha minglab nihollar eksin.

MUNDARIJA

| | |
|--|----|
| Urush bo'lmasin | 3 |
| Mitti yurakdag'i ulkan qarz | 5 |
| Bolalik | 7 |
| To'maris | 8 |
| Aql kuchi | 9 |
| "Robinzon Kruzo" kitobini o'qib... | 11 |
| Hamid Olimjonni eslab | 13 |
| Bobur nidosi | 16 |
| Inson qadri aziz | 17 |
| Ona tilim | 19 |
| Millat ustozni | 21 |
| Qizg'aldoq | 22 |
| Qomusim | 23 |
| Bahor keldi | 25 |
| Ona | 27 |
| Barglar nidosi | 29 |
| Onamga | 30 |
| Bahor | 31 |
| Faxr | 32 |
| Buyuklar yurti | 34 |
| Vatan | 35 |
| O'zbek farzandlari | 36 |

| | |
|-----------------------------------|----|
| Maqsad | 37 |
| Korrupsiya | 38 |
| Tafakkur yo'li | 39 |
| Insoniyat dardi | 40 |
| Bokschilarimizga | 42 |
| Andijon polkasi | 43 |
| Tilak | 44 |
| Qalam qudrati | 45 |
| Dehqon buvijonimga | 46 |
| Ona | 48 |
| Duo kuchi, | 49 |
| Birinchi ustozimga | 50 |
| Biz tufayli | 51 |
| Ajib dunyo | 52 |
| Majnuntol | 53 |
| Sirdaryodagi suv toshqinida | 54 |
| Onajonimga | 56 |
| "Ey ijod mактабим..." | 57 |

UO'K: 821.512.133-1(081)

KBK: 83.3(50'zb)

R 44

R 44 Ro'zimannopova, Rohila

Barglar nidosi [Matn]: *she'rlar/Rohila Ro'zimannopova.* – Toshkent: "Adabiyot" nashriyoti, 2024. – 60 b.

Adabiy-badiiy nashr

ROHILA RO'ZIMANNOPOVA

BARGLAR NIDOSI

She'rlar

Muharrir: *M. Nurmetova*

Badiiy muharrir: *A. Umarova*

Sahifalovchi: *A. Qayimov*

Musahhih: *I. Isamuhammedova*

O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi
"ADABIYOT NASHRIYOTI" MCHJ

Nashriyot litsenziysi: AI № AA 0043. 27.01.2020.

100129, Toshkent shahri, Markaz-15. 1/90.

Тел: (98) 128-30-04.

Bosishga 20.08.2024-yilda ruxsat etildi.

Ofset qog'oz. Qog'oz bichimi 70x90 $\frac{1}{32}$.

Ofset bosma. Hisob-nashriyot t. 2.0.

Adadi 500 nusxa.



"MASHHUR-PRESS NASHRIYOTI" MCHJ
bosmaxonasida chop etildi.